

TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM VA TARBIYA BERISHDA
PYEDAGOGIKANING AHAMIYATI

Maxmatqulova Zarina Nurillayevna

Alfraganus universiteti.

Filologiya fakulteti Linglistika (ingliz tili) yo'nalishi.
magistrate.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10873726>

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Oliy o'quv yurtlarida talabalarni o'qitishda fan o'qituvchisining kasbiy pedagogik moharati muhokama qilingan bo'lib, fanni o'qitishda zamonaviy "Flipped Class" pedagogik texologiyasidan foydalanish samaradorligi bayon etilgan.

Tayanch so'z va iboralar: pedagogik faoliyat, pedagogik moharat, kredit modeli, onlayn o'qitish, "Flipped Class" pedagogik texnologiyasi, o'qituvchi, ta'limgazari, tarbiya.

THE IMPORTANCE OF EDUCATION IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract. In this article, the professional pedagogic skill of the science teacher in teaching students in higher educational institutions is discussed, and the effectiveness of using the modern "Flipped Class" pedagogical technology in teaching science is described.

Basic words and phrases: pedagogical activity, pedagogical skill, credit model, online teaching, "Flipped Class" pedagogical technology, teacher, education.

ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИКИ В ОБРАЗОВАНИИ И ОБРАЗОВАНИИ В
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация. В данной статье рассматривается профессионально-педагогическое мастерство учителя естественных наук при обучении студентов в высших учебных заведениях, а также описывается эффективность использования современной педагогической технологии «Перевернутый класс» в преподавании естественных наук.

Основные слова и фразы: педагогическая деятельность, педагогическое мастерство, кредитная модель, онлайн-обучение, педагогическая технология «Перевернутый класс», учитель, образование.

Kirish. O'qituvchilik – katta san'atdir. Bu san'atga pedagog osongina, o'z-o'zidan erisha olmaydi. Shuning uchun, o'qituvchilik kasbiga, ya'ni sog'lom avlod uchun chinakam murabbiy bo'lishga havasi, ishtiyogi zo'r, zamon talablarini tez va chuqr tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy savyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan oshirib boruvchi, mustaqillik g'oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollangan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.

Bejizga "Agarki, dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblar ichida eng sharaflisi – o'qituvchilik va murabbiylikdir" deb taniqli olim – ulamalar aytishmagan[1].

Tadqiqotning dolzabligi. Shiddat bilan rivojlanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlarga mutaxsslislarni etkazib berishda bugungi kundagi ta'limgazari tizimidagi dolzarb muammosi oliy o'quv yurtlarida o'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyati doimiy ustirib borish va ta'limgazari berishda butunlay yangi g'oyalarni joriy etishni taqoza etadi. Shu sababli ham pedagogik ta'limgazari insoniyat sivilizasisida dolzabligicha qolaveradi.

Tadqiqot mavzusiga oid materillarni o'rganganlik darajasi.

Mashhur pedagog Yan Amos Komenskiy “O‘qituvchilik er yuzidagi har qanday kasbdan ko‘ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb” ekanligini ta’kidlaydi. O‘qituvchi obrazini tasvirlar ekan, unda quyidagi fazilatlar bo‘lishi maqsadga muvofiqligiga urg‘u beradi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o‘z ishini sevuvchi, o‘quvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg‘otuvchi, o‘quvchilarni o‘z ortida ergashtiruvchi va o‘z e’tiqodiga ega bo‘lgan shaxs» deb e’tirof etadi. Bundan chiqadiki o‘qituvchida insoniyatdagi mavjud barcha fazilatlar mujasam bo‘lishi kerak.

Insoniyat sivilizasiyasiga o‘lmas va noyob asarlari bilan bashariyat ilm-fani va madaniyati tarixidan munosib o‘rin olgan Muhamad Xorazimiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobi, ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi mutafakkir zotlar bizning buyuk ajdodlarmiz ekani bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Ular yozib qoldirgan asrlari xozir kunda ham kuchi yo‘qotmagan. butun joxon olimu- ulamalari o‘rganmoqda va ilmiy-tadqiqot izlanishlarni olib bormoqda.

Mashhur pedagog, o‘zbek maktabi asoschisi Abdulla Avloniy ham o‘qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasida qarashlarni ifodalashga alohida o‘rin beradi. Alloma, bola sog’lom bo‘lib o‘sishida ota-onalar o‘ziga xos rol o‘ynashi, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o‘qituvchining o‘rni beqiyos ekanini ta’kidlaydi. Ya’ni, bolalar aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlar “Diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa”, “Fikrining quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog’liqdur” deb e’tirof etadi.

IX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati- asoschilar, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Abulla Avloniy, Hamza Hakimzoda, Abdulla Qodiriy, Abulhamid Cho‘lpon kabi ajdodlarimiz ta’limni isloh qilish zarurli g‘oyasini olg‘a so‘rib, Turkistonda ijtimoiy ong taraqqiyotini boshlab berdilar. Buning davomchilari sifatida sodiq Ittifoq davrida Qori Niyoziy, G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Zulfiya kabi shoirlarimiz davom etkazdilar.

Mamlakatimiz mustaqilika erishishi bilan milliy ong, ma’naviyatimiz manbai-tarixiy-madaniy qadriyatlarimizni o‘rganish va tiklashga musharaf bo‘ldik. “Ta’lim to‘g‘risida” gi, “Kadrlar tayyorlash milliy dastur” qonunlari asosida ta’lim-tarbiya mazmuni yangi bosqichga ko‘tarildi, zamondoshlarimizdan Erkin Vohidov, Adulla Oripov, Said Axmad, Toxir Malik, Muxammad Yusif kabi adiblar ta’lim-tarbiya haqidagi bildirgan fikrlari alohida o‘rin tutadi[1].

Shu bilan birga, Yangi O‘zbekiston sharoitida pedagogik kadrlarni tayyorlash, o‘quv muassalarida o‘qitish tizimini halqaro andozalar asosida tashkil etish, gilabol axborot kommunikasiya tarmoqlari rivojlangan sharoitda bolalarga ta’lim-tarbiya berishda ota-onalar va pedagogik o‘qituvchilar faolligini oshirish masalarida bir qancha muammolar mavjudligi ma’lum bo‘lib qolmoqda. Albbata bu muammolarni hamjixatlikda ilmiy-tadqiqot izlanishlar orqaligina xal qilish mumkin.

Tadiqot maqsadi: Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni o‘qitish tizimini halqaro andozalar asosida tashkil etishda pedagogik o‘qituvchilarga qo‘yiladigan talablarni tahlil qilish asosida takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot masadidan kelib chiqib quyidagi **vazifalar** xal etiladi:

- 1) Mamlakatimizda mavjud ta’lim – tarbiya dasturlarni o‘rganish va tahlil qilish;
- 2) zamonoviy pedagogik o‘qituvchilarning insoniylik va pedagogik fazilatlari oliy ta’lim muassasalarida talabalarni o‘qitishdagi ahamiyatini tahlil qilish;

3)oliy ta’lim muassasalarida talabalarni o‘qitishda zamonaviy “Flipped Class” pedagogik texnologiyasi afzalliklarini o‘rganish va uni joriy etishni taklif etish.

Tadqiqotning ilmiylik darajasi. Tadqiqotda ko‘rib chiqilgan masalalarini ta’lim muassasalarida tadbiq etilishi, pedagogik o‘qituvchilar o‘ziga bo‘lgan talabchanlikni, tadqiqotda qo‘llanilgan “Flipped Class” pedagogik texnologiyasi talablar mustaqil bilim olishiga bo‘lgan intilishini oshiradi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot materillari mahalliy va xorijiy mualliflarning ilmiy-tadqiqot izlanishlari va o‘quv adabiyotlari tahlil qilingan bo‘lib, tahlilar asosida tayyorlangan materiallar, pedagogik o‘qituvchilar talabalarni o‘qitishda nafaqat o‘ziga bo‘lgan talabchanlikni, balki zamonoviy pedagogik texnologiya va interfaol metodlardan foydalangan xolda o‘qitishda foydadanish uchun o‘qituvchilik kasbini tanlagan yosh o‘qituvchilarga qimmatli ma’lumotlar sifatida xizmat qiladi.

Asosiy qismi. Har qanday fan o‘qituvchisining vazifasi talabalarni faol fikrlashga o‘rgatish, ularda bilimni mustaqil topish qobiliyatini rivojlantirishdir. Bilim faqat xotira bilan emas, balki o‘z fikrlari sa’y-harakatlari bilan “o‘zlashtirilganda” kuchli bo‘ladi. Bu kognitiv jarayonning o‘ziga xosligidir.

Kognitiv tizim-(lotincha kognitio “idrok qilish, tasvirlash, vaziyatni tahlil qilish” so‘zidan) xarakter rivojlanishi, tarbiyasi, o‘rgatish, ta’lim rivojlanishi natijasida ongda shakllangan bilish tizimi (shaxs). Kognitiv tizimning asosi - tafakkur, ong, xotira va tilning o‘zaro ta’siri. Bunday tizimni tashuvchisi inson miyasidir [3].

Eksperimental ravishda aniqlanganki, teng sharoitlarda inson eshitganlarining atigi 10 foizini, ko‘rganlarining 50 foizini, amaliy bajarganlarining 90 foizini inson xotirasida saqlar ekan.

Bundan kelib chiqadiki, ta’limda eng samarali shakli talaba bilimni mustaqil olish bilan bog’liq faoliyatda faol ishtirok etishiga asoslangan shakldir[5].

O‘qituvchi o‘qitish jarayonida metodikada belgilangan eng muhim talablariga rioya qilishi kerak. O‘qitish tamoyili o‘quv jarayoni mazmunini, tashkil etishi, metodologiyasi esa quyidagi talablar bilan belgilanadi[4].

-ilmiy o‘qitish-materialni so‘nggi yutuqlarni hisobga olgan holda ilmiy bayon qilish, eskirgan tushuncha va qarashlar (metodikasi)ni asosli ravishda rad etish;

- o‘quv jarayonini amaliy yo‘naltirilganligi - zamonaviy sharoitda tegishli bilim sohasi rivojlanish xususiyatlarini ochib berishini, o‘quv dasturidagi amaliy ishlanmalardan foydalanishni, kelgusidagi kasbiy tayyorgarligi bo‘yichi amaliy mashg’ulotlar nazarda tutilishi;


-materialni tizimli va izchil taqdim etish;

-talabalar kasbiy savodxonligini inobatga olgan holda o‘qitishni tabaqaqlash, hajmi va ko‘rinishi bo‘yicha foydalanish imkoniyati;


-ko‘rinishi (kiyinish madaniyati, yurish turilishi, hulq-atvori va boshq);

-o‘quvchidagi individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘rganishga individual yondashish, shuningdek, o‘qituvchidagi shaxsiy faoliyati va tajribasi ham ahamiyatlidir.

Ta’limdagи maqsad va vazifalari, ta’lim oluvchilar talabi hamda ehtiyojlari, ta’lim-tarbiya qonuniyatları kabi omillar ta’lim-tarbiyaga quyidagi talablarni qo‘yiladi:



1-rasm. Tarbiyaviy talablarning agaritimi



2-rasm. Ta’lim quyiladigan talablar algoritmi

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni zamonaviy kredit tizimida fan o‘quv rejasiga muvofiq umumiy soatning 50-60 foizi mustaqil ta’lim olishi uchun ajratiladi. Bundan tashqari ko‘pgina rivojlangan xorijiy mamlakatlarda onlayin ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, unda asosiy e’tibor talaba mavzularni pedagogik texnologiya va interfaol metodlar asosida mustaqil o‘zlashtirishga qaratilgan.

Muallif, talaba fan mavzularini mustaqil uzlashtirishlarida quyidagi pedagogik texnologiyadan foydalanishi tavsiya etadi.

1. Aralash o'qitish (Blended learning)-bu zamonaviy ta'lismi texnologiyasi bo'lib, uning asosi "sinf-dars" tizimi bilan elektron ta'lismi birlashtirishdan iborat. Bu elektron ta'lismi, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va zamonaviy o'quv vositalari taqdim qiladigan yangi didaktik imkoniyatlarga asoslanadi.

2. Aralash o'qitishning keng tarqalgan usullaridan biri - bu "Flipped Class" pedagogik texnologiyasi asosida o'qitish hisoblanadi. Flipped Class" inglizcha so'z bo'lib, uni muallif, o'zbek tilida, pedagogik texnologiyaga xaqiqiy mazmun-mohiyatiga ko'ra eng yaqin bo'lgan "Oldindan tayyorlangan dars-sinf" nomini tanlashni taklif etadi. Bu texnologiyada o'quv jarayoni asosiy qismlari bo'lgan dars bilan uyga berilgan vazifalar o'mni almashtirilib, avval bo'lajak darsga tayyorgarlik ko'rish uchun uyga vazifa siftida materillarni video, audio va boshqa interfaol materiallar talabalarga onlayin taqdim etiladi va keyin darsda mavzu mazmunidan kelib chiqib amalda qo'llash masalalari ko'rildi.

"Flipped Class"-texnologiyasini dastlabki tajribalarini XX asrning 90-yillari boshida AQShning Garvard universiteti professori Erik Mazur o'tkazgan. U ta'lismi oluvchilariga yangi tushunchalar va atamalar bilan tanishish orqali darsga tayyorlangan holda kelishlari uchun ma'ruza materiallari va maqolalar bergen. Dars boshida esa Erik Mazur kichik so'rov o'tkazgan va uning natijalari esa ta'lismi oluvchilar o'quv materiallarni qanchalik o'zlashtirganligi bo'yicha tyutoriga xabarnoma yuborib to'rgan. Shu asosida dars jarayonida qaysi masalalarga alohida e'tibor berish kerakligini bilib olgan va keyin o'quv materiallarni chuqur o'rganish va muammolarni hal qilish kichik guruhlarda amalga oshirilgan.

2007 yilda AQShda ikki nafar tyutor-Jonatan Bergman va Aaron Sems tomonidan "Flipped Class" texnologiyani amaliyatda qo'llaganlar. Ular o'z ta'lismi oluvchilariga bosma materiallar emas, balki uyda yangi o'quv materiallarini o'rganish uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan video darslarni tarqatishgan, shuningdek, 2011 yilda tadqiqotchi Endi Shell AQShda Michigan shtatidagi maktabda mazkur masala bo'yicha keng tadqiqot o'tkazgan. Bunda 45 daqiqalik ma'ruzani konspektlashdan ko'ra davomiyligi 3-6 daqiqalikdan ortmaydigan videoroliklardan foydalanish yaxshi natija berishi ma'lum bo'lgan.

"Flipped Class" pedagogik texnologiyasi zamonaviy kompyuter texnologiyalari va masofaviy o'qitish hamda Internet tarmog'i imkoniyatlari asosida yanada rivojlangan.

Hozirgi kunda "Flipped Class" texnologiyasini muvaffaqiyatli qo'llash amaliyoti Pensilvaniya shtati Universitetida (AQSh) 1500 dan ortiq ta'lismi oluvchilar ishtirokida olib borilmoqda.

"Flipped Class" texnologiyasini amalda qo'llashda quyidagi zamonaviy ta'llim vositalaridan foydalilanildi.

Podkast (Podcast) - bu ovozli fayl (audio ma'ruza) hisoblanadi. Ta'lismi oluvchilar podkastni o'zlarining stasionar yoki mobil qurilmalari asosida yoki ma'ruzalarni onlayn rejimida tinglashlari mumkin.

Vodkast (Vodcast -bu "video-on-demand", ya'ni so'rov bo'yicha video ma'nosini bildiradi) ham podkastga o'xshash bo'lib, farqi faqat videofayllarga egaligidan iborat.

Pre-vodkasting (Pre-Vodcasting)- bu ta'limiyl metod bo'lib, unda pedagog tomonidan ta'lim oluvchilar kelgusi o'rganiladigan mashg'ulotgacha avvaldan mavzu to'g'risida tasavvur olishlari uchun o'z ma'ruzasi bilan birga vodkast yaratiladi.

Yuqorida ko'rib chiqilganlarga asosan quyidagilarni **xulosa** qilishimiz mumkin,

O'qituvchi o'z sohasi bo'yicha professional bo'lishi kerak. Ya'ni, u o'zi tushuntirayotgan va o'rgatayotgan fanni chuqur bilishi, ushbu fani o'qitish metodikasini puxta egallashi, psixologiya, pedagogika, sosiologiya, inson fiziologiyasi kabi sohalardagi bilimlarini amalda qo'llashi kerak.

Muallif tomonidan, fan o'qituvchisi quyidagi muhim kasbiy fazilatlarga ega bo'lishini taklif etadi:

-oliy o'quv yurtida o'qituvchilik faoliyatiga e'tibor qaratish: ruhiy barqarorlik; moslashuvchanlik, harakatchanlik, tez javob berish qobiliyati;

-xarakter xususiyatlari: faollik, qat'iyatlilik, iroda, qat'iyatlilik, jasorat; o'z-o'zini nazorat qilish va cheklash, ijtimoiy me'yoriylik (axloqiy munosabatlar umumiy qabul qilingan xatti-harakatlar va boshqa odamlar bilan munosabatlari muvofiqligi);

-o'zini to'g'ri baholash qobiliyati;

-axloqiy fazilatlar: burch hissi, halollik, vatanparvarlik, odoblilik, aniqlik, jamoada ishslash qobiliyati; hazilga qiziqish hissi;

-ijtimoiy fazilatlar: xushmuomalalik, bag'rikenglik;

-o'ziga va talabalarga nisbatan talabchanlik;

-ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati; muloqot qobiliyatlari va boshqalar [2].

Binobarin, zamona viy ta'lim berish tizimida fan o'qituvchisi o'z oldiga qo'yilgan pedagogik vazifalarni bajarish uchun mas'ul bo'lib, qabul qilingan qarorlar uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

REFERENCES

1. A. Zunnunov. Pedagogika tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: "Sharq" nashriyati.- 2004 у
2. D. Ruzieva, M.Usmonboeva, Z. Xolikova. Interfaol metodlar: moxiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma:- T: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. - 136 b.
3. В. Н. Клепиков. Методика построения и проведения современного этического занятия / В. Н. Клепиков // Педагогика: журнал.- 2014.- № 2 45–52 с.
4. О.Г.Коваленко. Педагогическая деятельность преподавателя в обучении дисциплинам студентов вуза //Молодой ученый. - 2015.- № 21 (101). - 790-792 с.
5. Н. А. Шишкина. Построение модели обучения иностранному языку при многоуровневой системе профобразования в техническом вузе:-Ульяновск, 2004. -196 с.
6. P.Z. Davronov. Yangi pedagogi ktexnologiyalar. Uslubiy qo'llanma. Samaraqand.- 2008 у
7. Л. Л. Супрунова. Сравнительная педагогика в структуре современного научного знания // Педагогика: журнал.- 2014.- № 9.-100–110 с.

8. B.Sh.Usmonov., R..A.Xabibullaev. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. “Tafakkur” nashriyoti Toshkent – 2020 y.
9. N.A.Muslimov, Z.T. Raximov, A.A. Xo‘jayev, A.N. Mamatqulov, I.N. Karimov. “Ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasi”. O‘quv qo‘llanma. – Qarshi: Intellekt nashriyoti, 2020. – 170 b.
10. R. Mavlonova, N.Voxidova. N. Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent - «Fan va texnologiya» - 2010
11. A.X. Xujaqulov. Muhandislik ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasbiy tanlovga ta’sir etuvchi omillar. Science and Education. 2023.- 493-496 с
12. A.X. Хужакулов. Значение инновационных технологий в организации самостоятельной работы студентов в системе высшего образования. Вестник науки. 2023.- 113-117 с
13. Muradov S. ЭCONOMIC ANALYSIS OF PROFITS IN THE FIELD OF LABOR PROTECTION //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 1239-1245.
14. Sultonova D. N., qizi Siddiqova M. A. COLOR SCHEME IN THE FORMATION OF THE ARTISTIC ENVIRONMENT OF THE INTERIOR OF MODERN EDUCATIONAL CENTERS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 109-115.
15. Muradov, S. (2024). MAIN INDICATORS OF LABOR PROTECTION MEASURES EFFICIENCY. Modern Science and Research, 3(2), 473–484. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30191>
16. Muradov S. ASSESSMENT OF THE CHEMICAL SITUATION IN AN ACCIDENT IN FACILITIES USING STRONG TOXIC SUBSTANCES (KTZM) //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 464-472.
17. Muradov S. CHEMICAL STATUS ASSESSMENT AND ANALYSIS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 455-463.
18. Muradov, S. (2024). STUDY AND ANALYSIS OF WORKING ACCIDENTS. Modern Science and Research, 3(2), 444–454. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30166>
19. A. X. Xujaqulov. Muhandislik yo‘nalishi talabalaring umumkasbiy tayyorgarligiga qo‘yilgan talablar. Prospects and main trends in modern science 2023.- 60-63 с